

JIZZAX VOHASI HUNARMANDCHILIGINING TARIXIY VA ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA YORITILISHI

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi (tarix) 2-kurs magistranti

Ma'lumki, o'tmishda O'rta Osiyo xaqlari hayotida, qolaversa ho'jalik faoliyatida hunarmandchilik katta ahamiyat kasb etgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan ushbu xo'jalik turi, dehqonchilik, chorvachilik kabi o'zining qadimiy tarixiga ega. O'zbekistonda olib borilgan arxeologik qazilmalar bundan ikki ming yil muqaddam yurtimizda hunarmandchilik keng rivoj topganligidan guvohlik beradi. Odatda, hunarmandchilik ko'proq shaharlarda keng ko'lamma rivoj topib, shaharlarni o'sishi, savdo-sotiqni taraqqiy etishida muhim rol o'ynagan. Biroq, ayni vaqtida hunarmandchilikning qator sohalari bevosita uy-ro'zg'or sharoitidan ham rivojlangan. Shu sabab uy hunarmandchilik qishloqlarda ko'proq taraqqiy etgan. O'rta Osiyoda rivoj topgan hunarmandchilik, jumladan uy hunarmandchiligi barcha tarixiy davrlarda, turli etnik jamoalarda va hatto har bir tarixiy-madaniy hududda o'zining qator xususiyatlariga ega bo'lgan. Bu xususiyatlar qator omillar, eng avvalo siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish omillari natijasida tarkib topgan. Uy hunarmandchiligining o'ziga xos xususiyatlarini tarkib topishida tabiiy geografik sharoit omili ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xususiyatlar Jizzax vohasidagi ayollar hunarmandchiligidagi o'z aksini topgan. Ma'lumki, qadimdan Jizzax vohasi o'zining ko'pqirrali va boy, moddiy ma'naviy madaniyati bilan ajralib turgan. Vohaning qulay tabiiy-geografik o'rni va aholining boy tajribasi bu hududda xo'jalik hayotining barcha sohalarini o'tmishda taraqqiy etish uchun imkon bergen. Qishloq jamoalarida hunarmandchilik, uy-ro'zg'or kasbi- kori rivojlangan. Uy hunarmandchilik qishloq aholisi hayotining barcha sohalariga mahsulot yetkazib bergen va natijada qishloq jamoasining moddiy-ma'naviy hayotini tub ildizlariga aloqador bo'lgan. Shuning uchun XIX asr oxiri – XX asr boshlari davriy doirasida Jizzax vohasi aholisi hayotini tarixiy-etnografik jihatdan ilmiy tarzda o'rganish uchun bu mavzuda tadqiqot olib borish juda muhimdir. O'rta Osiyo tarixshunosligida etnografik materiallari asosida chuqur, har tomonlama tadqiq qilinayotgan davr doirasida mazkur mintaqasi aholisi orasida tarqalgan uy hunarmandchiligi va u bilan bog'liq udumlar o'rganilgan. Shuning uchun Respublikamizning yangi tarixi yaratilayotgan hozirgi yangilanish davrida biz tadqiqot uchun tanlab olgan "Jizzax vohasi qishloq ayollarining uy hunarmandchiligi tarixini o'rganish" mavzusi ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan masalani o'rganishga salmoqli hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Markaziy Osiyo xalqlari xo'jalik faoliyatida hunarmandchilik sohasi muhim o'ringa ega bo'lib kelgan va o'zida xalqimizni boy amaliy tajribalarini ifoda etadi. Ushbu an'anaviy hunarmandchiligimiz tarixini o'rganish hamisha muhim ilmiy tadqiqot masalasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan to shu kunimizgacha

bo'lgan davrda Jizzax vohasi hunarmandchiligi to'g'risida ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin, bu asarlarning tarixiy tasnifi haligacha yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Faqatgina I. M. Jabborovning 1917-yilgacha bo'lgan davrda "O'zbekistonda hunarmandchilikni o'rganilish tarixidan" asari bundan mustasnodir . Asarda o'zbek hunarmandchiligi to'g'risida ma'lumot beruvchi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi deyarli barcha manbalar to'g'risida keng ma'lumotlar berilgan. Ularni yutuqlari va kamchiliklari atroflicha ko'rsatib o'tilgan. Shunga qaramay, Jizzax vohasi hunarmandchiliga alohida to'xtab o'tilmaganligi va XX asr boshi bilan cheklanishi tufayli Jizzax vohasi ayollarining hunarmandchiligi tarixini o'rganilishini tadqiq qilish muhim masala bo'lib qoladi. XIX asrning ikkinchi yarmigacha Jizzax vohasi ayollar hunarmandchiligi tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganilmagan. Voha hunarmandchiligi to'g'risidagi ilk ma'lumotlar sayohatchilar xonliklardagi rus hukumati vakillari tomonidan yozib qoldirilgan yo'l esdaliklarida, axborotlarida uchraydi. Ushbu ma'lumotlar asosan Rossiyaning O'rta Osiyo hududidagi davlatlar ishlab chiqarish salohiyati, xom-ashyo manbalarini miqdorini aniqlashga qaratilgan katta qiziqish oqibatida to'plangan bo'lib, o'z oldiga o'lka hunarmandchiligi to'g'risida bat afsil ma'lumot berishni maqsad qilib qo'yigan edi. Shuning uchun bu davr hunarmandchiligi to'g'risidagi asarlar har doim ham ilmiy talablarga yetarli javob bermaydi. Ular tartibli olib borilmagan. Tadqiqotchilar vohani ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotini to'g'ri yoritib bera olmaganlar, hunarmandlar ijtimoiy holati nazardan chetda qolgan. Tadqiqotchilar ko'proq faktik manbalar to'plash, ularni bir tizimga solish va tasvirlab berish bilan cheklanib qolganlar. Turkiston, shu jumladan Jizzax vohasi hunarmandchiligini ilmiy jihatdan o'rganish 1872-yilda Moskvada bo'lib o'tgan politexnika ko'rgazmasi bilan boshlandi desak xato bo'lmaydi. Chunki ko'rgazmaga bag'ishlab chop etilgan "Русский Туркестан" to'plamida o'lkadagi mahalliy hunarmandchilik sohasi haqida ilk maqola e'lon qilindi . Unda asosan, hunarmandchilik ishlab chiqarishi texnikasi bayon qilingan. Lekin, hunarmandlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va maishiy turmushi yoritilmagan. Mustaqillik yillarda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlarning umumiyligi xususiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqida qadimdan rivojlanib kelgan ayollar hunarmandchiligining ayrim qirralarini yoritishga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Bunday tadqiqotlar sirasiga S. Davlatova, Sh. Nurullayeva, M. Ibragimova, G. Zunnunova, Yu. G.aybullayeva, N. Abdullayevalar ning ilmiy izlanishlarini kiritish mumkin. Yuqoridaqgi ta'kidlaganidek, XIX asrning oxiri – XX asr boshlari doirasida Jizzax vohasi aholisi orasida tarqalgan ayollar uy hunarmandchiligin va u bilan bog'liq udumlarga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Shu bilan birgalikda ayollar hunarmandchiligi O'rta Osiyo, jumladan, hozirgi Respublikamiz hududlari miyosida avval ham tadqiqotchilar tomonidan maxsus tadqiq etilmagan. Dastlab, O'rta Osiyoda ayollar hunarmandchiligin o'rganish XIX asrning oxiri choragidan boshlab jiddiy o'rganila boshlandi. Bu boradagi ma'lumotlar sayohatchiliar, savdogarlar, xonliklardagi rus hukumati vakillari, harbiylar tomonidan qisqa axborot tarzida yozib qoldirilgan.

Ushbu asarlar uy hunarmandchiligi tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega boʻlsada, ularni tanqidiy nuqtaiy nazardan o'rganishni talab etiladi. Chunki, mualliflar o'z manbalarini bevosita doimiy kuzatishlar asosida to'plamaganlar, aksincha ko'proq rasmiy hisobotlardan olganlar. Ushbu tadqiqotda XIX asrning oxiri – XX asr davomidagi Jizzax vohasi hunarmandchiliga bag'ishlangan tarixiy manbalarni, ilmiy izlanishlarni faqatgina eng asosiylarini qamrab oldi. Kelgusidagi Jizzax vohasi hunarmandchiligi tarixini o'rganishning tarixshunoslik tavsifida yozma manbalar qamrovini kengaytirish va o'rganishni chuqurlashtirish lozim. Shuningdek, arxiv hujjatlari, statistik materiallar va e'lon qilinmagan shu davrga oid manbalarni o'rganish lozim bo'ladi. Shu bilan birga etnografik dala materiallarini jalg qilish ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Bu esa Jizzax vohasi hunarmandchiligi tarixini o'rganishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi va xalqimiz an'anaviy hunarmandchiligi ishlab chiqarish munosabatlarini va maishiy turmushini to'laqonli yoritib berish imkonini bergen bo'lar edi.

Mustaqillik sharofati tufayli endilikda milliy-madaniy meros hisoblangan kashtachilik hunari ham an'anaviy-zamonaviy va badiiy soha sifatida yanada rivojlanayotganligi, asrlarga tatishini har daqiqada his qilib turish mumkin. Aslida esa, bu qo'l ishi o'zining nafisligi va naqshlarning nozikligi bilan barchani e'tiborini tortadi. Bugungi kunda vohada tajribali kashtado'z hunarmand ayollar ko'pchilikni tashkil etib, bir qator shogirdlarni tarbiyalashmoqda. Jumladan, Jizzax shahrida hunarmandchilikning gul bosilgan gazlamalar va chocli buyumlar quroqchilik yo'nalishida faoliyat olib borayotgan hunarmand Alimova Orzixon Abdullayevnani misol qilib keltirish mumkin. Kashtado'z qisqa muddatda ko'plab shogirdlariga hunarmandchilik sirlarini o'rgatib, shogirdlar endilikda mustaqil faoliyat yuritishmoqda. Bu esa ko'hna hunarning yangicha hayotiy ma'no kasb etayotganidan, «ustoz-shogird» an'anasi bardavomligidan darak beradi Ta'kidlash joizki, Jizzax shahrida quroq va kashtachilik hunarmandchiligi asosida faoliyat olib borayotgan hunarmand Alimova Orzixon Abdullayevna, Jizzax viloyati, Paxtakor tumanida gul bosilgan gazlamalar va chocli buyumlar quroqchilik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan Gulruk Yadgarova, G'allaorol tumanida quroq va kashta asosida milliy liboslar tikish yo'nalishida Gavhar Mirzayeva o'zlarining hunarmandchilik maktablari shakllantirganligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жабборов И. М. Из истории изучения ремесла в дореволюционном Узбекистане // КСИЭ XXXII. – М., 1959. – С 74–84
2. Федченко А. Оби джуаз-писче бумажная фабрика в Коканде // Русский Туркестан. – Вып. II. – М., 1872. 9 –с
3. Давлатова С. Т. Ўзбекистон амалий санъатида анъанавий тақинчоқлар: миллийлик муаммолари ва трансформация жараёнлари (XIX аср охири – XX) / Ўзбекистон санъатида маданий толерантлик ва анъаналарнинг ўзига хослиги. – Тошкент, 2005. – Б. 66–68